

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASINING QARORI**

**“XALQ DEPUTATLARI VILOYAT, TUMAN VA SHAHAR**  
**KENGASHLARIGA SAYLOV O'TKAZUVCHI SAYLOV**  
**KOMISSIYALARINING BINOLARI VA XONALARINI JIHOZLASH**  
**TARTIBI TO'G'RISIDA”GI NIZOMNI**  
**TASDIQLASH HAQIDA**

“Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 8-moddasi, “O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 5, 9-moddalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi

**QAROR QILADI:**

1. “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalarining binolari va xonalarini jihozlash tartibi to'g'risida”gi Nizomilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tuman va shahar hokimliklari xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalariga ushbu Nizomda belgilangan tartiblarni joriy etish uchun zarur imkoniyatlarni yaratib bersinlar.

3. Ushbu qaror Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tuman va shahar hokimliklariga ijro uchun yuborilsin.

4. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-saytida, shuningdek boshqa manbalarda e'lon qilinsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Kotibiyati rahbari S.Kurbonkulov zimmasiga yuklansin.

**Markaziy saylov komissiyasi**  
**Raisi**

**M.Abdusalomov**

*Toshkent shahri,*  
*2017 yil «11» avgust,*  
*№ 845.*

**Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalarining binolari va xonalarini jihozlash tartibi to'g'risida**

**N I Z O M**

Ushbu Nizom "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining 2017 yil 27 martdagi 823-son qarori bilan tasdiqlangan "Saylov qonunchiligi va huquqni qo'llash tajribasini yanada takomillashtirish bo'yicha kompleks tadbirlar rejasi"ning 26-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Mazkur Nizom xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalarining samarali faoliyat yuritishi, ular joylashgan binolar va xonalarni jihozlash tartibini belgilaydi.

**1-bob. Umumiy qoidalar.**

1. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovni tashkil etish va o'tkazish uchun:

- viloyat saylov komissiyasi;
- tuman saylov komissiyasi;
- shahar saylov komissiyasi;
- okrug saylov komissiyalari\*;
- uchastka saylov komissiyalari\*tuziladi.

*\*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovini o'tkazuvchi okrug va uchastka saylov komissiyalari faoliyatini tashkil qilish tartibi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining qarorlari bilan tegishli Nizom va uslubiy tavsiyalar qabul qilingan. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovini o'tkazuvchi okrug va uchastka saylov komissiyalari faoliyati bo'yicha yuqoridagi Nizom va uslubiy tavsiyalardan foydalanishi lozim.*

2. Viloyat, tuman, shahar saylov komissiyasi tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan saylovga kamida saxon kun qolganida komissiyaning raisi va olti-o'n to'rt nafar boshqa a'zosidan iborat tarkibda tuziladi hamda o'z vakolatlarini tegishli xalq deputatlari Kengashlariga saylov yuzasidan navbatdagi saylov kampaniyasi boshlanganligi e'lon qilingunga qadar amalga oshiradi.

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari faoliyatini uslubiy jihatdan ta'minlaydi.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar, tuman va shahar hokimliklari xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov

o'tkazuvchi saylov komissiyalari uchun bino va xonalar ajratadi hamda ularni jihozlashda, o'z vakolatlarini amalga oshirishda va Nizomda belgilangan talablarning bajarilishini ta'minlashda etarli darajada ko'maklashishga majburdirlar.

## **2-bob. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari binolari va xonalarini jihozlash yuzasidan asosiy talablar.**

1. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalarining nomi ko'rsatilgan peshlavha o'zbek va mahalliy aholining ko'pchiligi so'zlashadigan tilda tayyorlanadi hamda saylov komissiyalari binolariga kiraverishda osib qo'yiladi.

2. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari joylashgan binoga Davlat bayrog'i osib qo'yiladi va xonalar Davlat ramzlari (gerb va bayroq) bilan ta'minlanadi.

3. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalarining binolariga kirish joyida nogironlar aravachasiga moslashtirilgan panduslar (g'ildirakli aravachalar chiqishiga mo'ljallangan maxsus yo'lak) bo'lishi va ularning belgilangan talablarga (eni kamida 90 santimetr, chiqish burchagi 30<sup>0</sup> dan ko'p bo'lmagan) mos kelishi kerak.

4. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari joylashgan bino va xonalar o'zbek hamda mahalliy aholining ko'pchiligi so'zlashadigan tildaviloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlarga oid normativ-huquqiy hujjatlar aks etgan stendlar bilan ta'minlanadi (ushbu stendlarga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (XXIII bob 117-modda), "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi qonunlardan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (146 va 147-moddalar), Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (V<sup>1</sup> bob 51<sup>2</sup>–51<sup>9</sup> moddalar), Fuqarolik protsessual kodeksi(272-modda)dan ko'chirmalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Davlat ramzlari haqidagi ma'lumotlar joylashtiriladi).

5. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalarining saylov okruglari aks etgan xaritasi bo'lishi kerak.

6. Binoda xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasi a'zolari uchun xona va majlislar zali ajratiladi.

7. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalarining tarkibi, ish rejasi, navbatchilik jadvali aks etgan ma'lumotlar stendlarga joylashtiriladi.

8. Saylovlarga oid qonun hujjatlari to'plami va boshqa tegishli adabiyot, jurnal hamda gazetalar bo'lishi lozim.

9. Saylov komissiyasi joylashgan xonalar zarur mebellar, orgtexnika vositalari (telefon, faks, printer, seyf, 2 ta kompyuter (*ularning biri Internet tarmog'idan foydalanish uchun, ikkinchisi Internet tarmog'iga ulanmagan holda*

*viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyasining faoliyatida foydalanish uchun*), televizor va hokazolar bilan jihozlanadi;

10. Yong'inga qarshi kurashish vositalari bilan ta'minlanadi.

### **3-bob. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari o'z faoliyatida foydalanadigan normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida"gi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi to'g'risida"gi Qonuni.

5. O'zbekiston Respublikasining "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonuni.

6. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni.

7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining tegishli qarorlari.

*(Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi rasmiy veb-sayti ([www.elections.uz](http://www.elections.uz))dan olish mumkin.)*

### **4-bob. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalarida ish yuritish jildlari ro'yxati**

1. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalarining qarorlari, bayonnomalari va dalolatnomalari papkasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasidan, siyosiy partiyalardan, mahalliy davlat organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan va jamoat birlashmalari vakillaridan hamda korxonalar, muassasa va tashkilotlardan kelgan hujjatlar va yozishmalar papkasi.

3. Saylovchilarning murojaatlarini qayd etish jurnali.

4. Korxonalar, muassasa va tashkilotlardan kelib tushgan hujjatlarni ro'yxatga olish jurnali.

5. Chiqish hujjatlarini ro'yxatga olish jurnali.

6. Navbatchilik jurnali.

### **5-bob. Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov o'tkazuvchi saylov komissiyalari ta'minlanishi kerak bo'lgan kantselyariya mollari ro'yxati**

Konvertlar – 5 dona, ish yuritish jurnallari – 6 dona, papkalar – 4 dona, yozuv ruchkasi (sharikli, ko'k rang) – 8 dona, qog'oz – 1 pachka, stepler – 1 dona, skoba – 2 pachka, shtrix – 1 dona, qog'oztashgich – 1 dona, chizg'ich – 1 dona, skrepka – 1 dona.